

KREDIT - MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY- METODIK ASOSLARI

Ibragimov Farrux O'roq o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yonalishi 1-

bosqich magistranti

farruxofficial777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lrim tizimidagi bir necha o'zgarish va qo'shimchalar, shuningdek yangi kiritilgan kredit-modul tizimiga mustaqil ta'lrim mashg'ulotlarini tashkil etish va uning tatbiqi haqida gap yuritiladi. Sohada qo'shilgan yangiliklar talaba o'quvchilar ommasiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lrim, kredit-modul tizimi, mustaqil fikr, talaba, o'qituvchi, zamonaviy usul, ijodiy qobiliyat, mutaxasislik, rivojlanish, ta'lrim tizimi, kredit.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo'yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lrim tizimini oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning mustaqil bilim olishlari oliy o'quv yurtlarida o'quv reja va dasturda aniq belgilangan. Xuddi shunday tartib umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi tizimida ham amal qilinsa bilim egallashdagi izchillik va uzlusizlik yanada takomillashdi. Hozirgi kunda kredit-modul tizimi- O'zbekiston oliy ta'larning o'lchov birligi hisoblanadi. Unga ko'ra, universitetva institatlarda o'tiladigan har bir fan undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi.

Kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqt tushunchasi dars vaqt tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda bilimning manbayi faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o'qish vaqt tushunchasiga o'qituvchi nuqtayi nazaridan emas, balki talaba nuqtayi nazaridan yondashiladi. Talabaning o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi talaba ta'lrim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z elkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini ham bildiradi. 1 soat auditoriya vaqt uchun talaba 1,5 soat uyda va kutubxonada o'qishi

zarur. Lekin bu jarayon ko‘p jihatdan o‘qituvchining mas’uliyatiga ham bog‘liq. Chunki talabalar o‘z vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida o‘qish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish o‘qituvchining vazifasidir. Shuning uchun kredit-modul tizimiga o‘tish o‘qituvchilarning ish yuklamalarini ham qayta ko‘rib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular o‘qitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi. Amaldagi tizimda esa o‘qituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bog‘lab qo‘yilgan. Talabaning o‘qish yuklamasi bu tarzda — auditoriya va mustaqil o‘qish soatlariga ajratilishi OTMlar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli o‘quv qo‘llanmalari ko‘lamini yanada kengaytirishni ham taqozo etadi. Bularning barchasi ECTS kredit-modul tizimining miqdoriy tushunchalari va ishslash mexanizmi haqidagi asosiy qoidalar edi.

Yuqoridagi kredit –modul tizimi qoidalarini mustaqil ta’lim bilan birlashtirsa, unda talaba faqat 1,5 soat o‘qituvchi bilangina emas balki o‘zi mustaqil shg‘ullanishi uchun ham va shuningdek o‘z mutaxasisligini chuqurroq tushunishi uchun ham vaqt bo‘ladi. Ayrim hollarda umumiylor o‘rtalimdagisi tartib-qoidalar o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limidan farqlanadi. Xuddi, shuningdek, o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limi bosqichida o‘quvchining bilim olishi oliy o‘quv yurtlaridagidan keskin farq qiladi. Ushbu tafovutlar talabalarning bilim olishi va kasb egallashlarida muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonining uzlusizligi, izchilligi , tizimliliği katta ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. Ma'lumki, keyingi yillarda talabalarning keng ma'nodagi mustaqil mutaxassis bo'lib kamol topishlariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ular oldiga har bir fan materiallarini atroflicha, puxta egallash, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyatda o'rinni qo'llay olish, zamon bilan hamnafas bo'lish, mustaqil qaror qabul qila olish, qo'yilgan hayotiy yoki ilmiy masalalarga to'g'ri va ijodiy yondashgan holda eng maqbul yechimni topish, o'zmalakasini muntazam oshirib borish, tanlagan sohasi yoki kasbiga oid dunyo miqiyosidagi yangiliklardan, erishilayotgan yutuqlardan doimo boxabar bo'lish va ularni o'z o‘qish va ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilish, innovatsion faoliyat olib borish, bunda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi jiddiy va o'rinni talablar qo'yildi. Talaba-yoshlarning yangi avlodini yuqoridagi talablarga javob bera oladigan mutaxassis qilib yetishtirish milliy ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ta’lim jarayonini mustaqil bilim olish asosida zamonaviy usullarda, yangicha ko'rinishlarda tashkil qilishga undaydi. Mustaqil ish oliy ta’lim muassasalari talabalarni o‘qitishda individuallashtirish uslubi sifatida bo'lg'usi mutaxassislarning mustaqil ishlashi, o‘qitishning faol usullari

va shakllariga tayangan holda ularning ijodiy qobiliyatini oshirish uchun ommaviy umumiyligi o'qitishdagi individual yondashish tomon keskin burilish yasashni amalga oshirish kerak. O'quv jarayoni o'qitish shaklidan qat'iy nazar shartli ravishda 2 toifaga bo'linadi. Jumladan,

- bevosita o'qituvchi rahbarligidagi o'quv jarayoni shakllari;
- talabalarning mustaqil ishi kabi toifalarga bo'linadi.

Mustaqil ta'limga talabining umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga yo'naltirilgan bilim faoliyati turlaridan biridir. Oliy ta'limga muassasasida mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari va boshqa didaktik vositalar bilan mustaqil ishlash, muammoli topshiriq va vazifalarni bajarish uchun kichik guruhlarda ishlashga tayyorlanish va boshqa shu kabi jarayonlarni amalga oshirish katta ahamiyatga egadir. Mustaqil ta'limga rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarini bajaradi, ya'ni mashg'ulot paytida olingan bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'quv adabiyotlari bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi, vazifani mustaqil bajarish, ijodkorlik hamda o'ziga ishonch ruhida tarbiyalaydi. Talabaning musitaqligini ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga intilishi, maxsus adabiyotlar, ilmiy manbalar ustida ishlashi, egallagan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishi, o'zining mutaxassisligi bo'yicha kengroq bilimni egallahsha bo'lgan ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlash jarayonida talabaning shaxsiy fazilatlari yanada takomillashadi, shu bilan birga uning irodasi, fikrlash qobiliyati, xotirasikuchayadi. Mustaqil ta'limga Respublikamiz OTM lari boshlang'ich bosqichlarda me'yoriy jihatdan ta'limga dasturlarini o'zlashtirishda talabalarning mustaqil ta'limi o'quv fanlari masalalari va muammolari qatorida ko'zda tutilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маханов, Ж. (2023). BODY LANGUAGE AND VOICE DEVELOPMENT: Body language exists in both animals and humans, but this article focuses on interpretations of human body language. When it comes to voice, voice (or vocalization) is the sound produced by humans and other vertebrates using the lungs and the vocal folds in the larynx, or voice box. In terms of observable body language, non-verbal (non-spoken) signals are being exchanged whether these signals are accompanied by spoken words or not. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(1).

2. Шодиев, Ж. X., & Алиева, С. С. (2023). ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СО СТОРОНЫ ГОСУДАРСТВА. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(2), 294-297.

3. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA MASHG 'ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARING O 'RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.
4. Талипов, Н. Х. (2022). ТАСВИРИЙ САНЬАТ МАШФУЛОТЛАРИДА ПЕРСПЕКТИВАНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯ. БОШКАРУВ ВА ЭТИКА КОЙДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ , 2 (1), 27-36.
5. Sh, S. H., Mamarasulova, N. I., & Yusupov, M. I. (2022). HOZIRGI ZAMON TALABALARINING BILIM OLISHIDA ETIK-ESTETIK CHALG'ITUVCHI OMILLAR. PEDAGOGS jurnali, 9(2), 90-95.
6. Doniyorov, M. (2021). Ta'lif sohasini rivojlantirishda modulli-kredit tizimi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, 2(Aрхив№ 3).
7. O'rolboy, O. R. U. B. (2022). KREDIT-MODUL TIZIMI-TA'LIMDAGI YANGI NATIJA. RESEARCH AND EDUCATION, 1(1), 356-359.